

ONA TILI DARSLARINI GURUHLASH USULI ORQALI TASHKIL ETISH

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti MPRI6-U guruh talabasi
Yunusova Fazilat Ulug'bek qizi*

ANNATATSITA: Ushbu maqolada ona tili darslarini samaradorligini oshirish, shuningdek ona tili darslarini o'qitish jarayonida integratsiyalashgan darslarda fanlararo aloqadorlikni ta'minlash, hamda ona tili darslarida o'quvchilarga guruhlash usulidan foydalangan holda ta'lim berishning ustuvor g'oyalari ilgari surilgan

Kalit so'zlar: Integratsiya, ona tili inavatsiya fanlararo aloqadorlik, guruhlash usul va natijalari

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy mohiyati ta'lim mazmunini va shaklini takomillashtirishga qaratilgan.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta'lim sifatining oshirilishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib inavatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari fanlarini o'qitishda zamon talablari asosida yondashish, ta'limda eng ilg'or texnologiyalarni qo'llash davr talabiga aylandi.

Integratsiya-so'zi lotincha integration –tiklash, to'ldirish, "integer" butun so'zidan kelib chiqqan.

Integratsiya g'oyasi XVIII asrning yigirmanchi yillarida ingliz olimi G.Spenser tomonidan fanga kiritilgan.

Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan. Ta'lim integratsiyasi bosh maqsadi bilimlarni samarali o'zlashtirishdangina iborat emas, aksincha bilimlarni o'quvchi eng qulay, oddiy tushuncha va tassavurlardan murakkabga tomon boruvchi izlanish, intilishlari asosida uzluksiz o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Mashhur pedagog F.Gerbat integratsiyani ta'limda qo'llashning to'rtta yo'nalishini sanab bergan.

Aniqlilik, Asotsiatsiyaviylik, Tizim, Metod

Integratsiyaning birinchi va ikkinchi yo'nalishlari bilim olishga yo'naltirilgan bo'lib, uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlari eski bilimlar va yangi bilimlarni bir biri bilan uzviy bog'lash demakdir.

Bilamizki uzluksiz ta'lim tizimida ona tilini o'qitish asosiy o'rin egallaydi. Ona tili darslariga noan'anaviy darslarni olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish dars o'tishning yangi-yangi usullarini topish DTS talablarini bajarishga zamin yaratadi. Ona tili darslarini ham fanlar bilan bog'lab o'tish, ona tilini mazmun mohiyatini tushunishda samarali yordam beradi. Ona tili boshqa o'quv predmetlaridan alohida o'rganila olinmaydi. Chunki ta'lim tizimida fanlararo aloqadorlik-integratsiya

darslarini tashkil etish o'quvchini mavzunu tez va oson anglashiga olib keladi. Masalan, ona tili darsida adabiyotdagi g'azal parchalarini tahlil qilish vazifasi yuklatilsa, o'quvchi adabiyot fanidan o'tilgan ga'zallarni yodga oladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchi ham mashg'ulot bajaradi ham mustahkamlashga imkon yaratiladi.

Ona tili hamda ingliz tili. Bu ikki til mutlaqo bir biriga nutq, oxang, qonun qoigalari o'xshash bo'lmagan fanlar hisoblanishadi. Biz bu ikki fan o'rtasida integratsiyalashtirishni qo'llash orqali, bir necha metodik usulardan foydalangan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etishimiz mumkin. Masalan Venn diagrammasidan foydalanib ko'raylik

Ingliz tili hamda rus tili fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarni guruhlash usulidan foydalanilganligi kabi ona tili darslarida ham guruhlash usulidan foydalanish, dars samaradorligi oshirishga, o'quvchilarning bilim salohiyatlari yuqorilashishiga olib keladi.

Masalan bir sinf o'quvchilari o'ttiz nafar deb oladigan bo'lsak, ularni guruhlaganimizda o'quvchilar soni o'n beshtadan ikki guruhni tashkil etadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dars jarayonlarini tushuntirish va tushungan qatlam bilan ishlash tezligi hisoblanadi. Pedagog qanchalik malakali va iqtidorli bo'lmasin berilgan vaqt bir mavzuni tushuntirish mustahkamlash yuzasidan savol javob va boshqa qiziqarli interfaol metodlardan foydalanish uchun oz hisoblanadi. Pedagog mavzularni tushuntirib berishda o'quvchi tomonidan taqdim etiladigan savollarga javob berishda bir qancha mavzulardan misollar taqdim etishiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari baholash masalasi ham mavjud.

Agar sinf oquvchilar soni o'n beshtani tashkil qilsa birinchi navbatda shovqin kamayadi darsga bo'lgan qiziqish ortadi va albatta kadrlar soni ortishiga bu o'z navbatida sog'lom raqobatga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolida g'ulomova, Sharafjon Sariyev, Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik-Ona tili o'qitish metodikasi 297-b
2. Botirova Dilafro'z, Shukurjon xudoyberdiyev-Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan darsliklardan foydalanish
3. R.A. Mavlonova, N.Raxmonqulova, "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi", "Toshkent Ilm ziyo" 2009-y
4. www.ziyonet.uz
5. www.pedagog.uz